

## QO'QON XONLIGINI ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI MANBASHUNOSLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17011365>

**N.R.Topildiyev**

*Namangan Impuls tibbiyot instituti*

*"Ijtimoiy gumanitar va aniq fanlar"*

*kafedrasi dotsenti. t.f.n.*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Qo'qon xonligini Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalari, uning o'r ganilish manbalari, manbalarning turli davrlarda o'zaro munosabatlarga to'g'ri baho berilishi olim va mutaxasislarning asosiy vazifasi ekanligi haqida ayrim faktlar keltirilgan.

### **Kalitli so'zlar**

Qo'qon xonligi, xon, qishloq xo'jaligi, savdo, xalqaro munosabatlar, Rossiya imperiyasi, tajovuz, bosqin, strategik hamkor, mustamlakachilik, savdo, madaniy aloqalar, siyosat, tarixshunoslik, manba, manbashunoslik, mahalliy tarixchilar, Turkiston, general-gubernatorlik.

### **Аннотация**

В статье излагаются некоторые факты о дипломатических отношениях Кокандского ханства с Российской империей, источники их изучения, а также то, что правильная оценка источников взаимоотношений в разные периоды является главной задачей ученых и специалистов.

### **Ключевые слова**

Кокандское ханство, хан, царизм, Россия, покушение, завоевание, стратегическое партнёрство, колонизация, социально-экономическое и политическое состояние, торговля, культурные связи, политика, история, источник, источниковедение, местные историки, Туркестан, генерал-губернаторство.

### **Abstract**

This article presents some facts about the diplomatic relations of the Kokand Khanate with the Russian Empire, the sources of its study, and the fact that the correct assessment of the sources' mutual relations in different periods is the main task of scholars and specialists.

### **Key words**

Kokand khanate, khan, tsarism, Russia, encroachment, conquest, strategic partner, colonization, social-economic and political condition, trade, cultural relations, policy, history, source, source study, local historians, Turkistan, governor-general.

O'zbekistonning Rossiya bilan asrlar davomida olib borgan turli soxalardagi aloqalarining tarixini o'rganish, turli davr va zamonlarda ularning o'zaro munosabatlariga to'g'ri baho berish, shu mavzuni o'rganadigan olim va mutaxassislarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bugungi kunlarda Rossiya O'zbekiston uchun ko'p soxalarda strategik hamkor ekan, bu hamkorlikning ikki tomon uchun samaradorligi va foyda keltirish vosita va tamoyiillarini tayanch asoslarini o'rganish ham zarur bo'lmoqda. Bu mavzuni o'rganishda ikki yuz yillik elchilik aloqalari tarixini, savdo-sotiq, madaniy va etno-sotsial munosabatlar o'tmishini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Tarixdan ma'lumki, uzoq yillar davomida bu munosabatlar O'zbekiston va uning xalqi foydasiga olib borilmagan. Rossiya XIX asrning o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyoda bosqinchilik va zo'rovonlik siyosatini olib borib bu xududlarda mustamlakachilik siyosatini joriy etgani bizga ma'lum.

Bugungi davrdagi tarixchilarimiz Qo'qon xonligining xalqaro munosabatlarini o'rganar ekanlar, uni Rossiya tomonidan "bosib olingan" degan xulosaga tayanadilar. Ammo bu mavzuni o'rgangan mutaxassis biladiki, bunday xulosa fanimizda qaror topishi uchun ancha vaqt o'tgan. XIX asrning o'rtasidan mahalliy tarixchilar, rus olimlari va harbiylari Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borilgan siyosatini bosqin deb talqin qilgan bo'lsalar, sho'rolar davri tarixi bilan shug'ullangan tarixchilar o'z asarlarining tarixshunoslikka oid qismlarida Qo'qon-Rossiya diplomatik munosabatini «Qo'qon xonligi Rossiyaga qo'shib olingan» degan nuqtai nazarda turgan holda yoritishgan.<sup>65</sup> 1959 yildan boshlab «O'rta Osiyo xonliklari chor Rossiyasi tomonidan bosib olinmagan, balki qo'shib olingan» degan rasmiy g'oyaning hukmronligi sababli Qo'qon-Rossiya munosabatlarini shu g'oyaga mos talqin qilingan edi. O'zbekistonlik olimlar ham senzuraning qattiq nazorati tufayli ushbu masalani chuqur tadqiq qila olmadilar. Shuning uchun ular umuman diplomatiya masalasining yo qisqa yozib, yoki umuman elchilik bo'lganligini ta'kidlashib, masalani asl mohiyatini ochib berolmadilar.<sup>66</sup>

XIX asrda yashagan Qo'qonlik tarixchilar o'z asarlarida Rossiya bosqini haqida yozar ekanlar, rus zabit va askarlariga bosqinchi sifatida baho berib,

<sup>65</sup> Мавзу тарихшунослиги ҳакида кар.Ишқуватов В.Т.XX асрнинг II ярми тарихшунослигига Кўқон-Россия дипломатик муносабатлари. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент,2003.-154 б.

<sup>66</sup> Ишқуватов В.Т.XX асрнинг II ярми тарихшунослигига Кўқон-Россия дипломатик муносабатлари. 16 б.

ularning yovuzlik va jabr-sitamlarini keng yoritganlar. Qo'qon tarixchilaridan Avaz Muhammad Attor, Abu Ubaydulloh Toshkandiy, Muhammad Solihxo'ja, Mirzo Olim ibn Mirzo Rahim Toshkandiy, Mullo Xolbek va boshqalar Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borilgan siyosati va bosqinchilik jarayonini haqqoniy tarzda bayon qiladilar. Afsuski, yuqoridaq mualliflarning asarlari qo'lyozma shaklida qolib ketib, faqat qisman ilmiy tadqiqotlar doirasiga kiritilgan. Jumladan, "Tarixi jahonnamoyi" asarining muallifi Avaz Muhammad Attor Xuqandiy XIX asrning o'rtalaridagi Russiyaning O'rta Osiyoga nisbatan olib borilgan siyosati va harbiy faoliyati, Turkiston, Avliyo-ota, Chimkent, Toshkent, Jizzax, O'ratega, Xo'jand, Samarqand uchun olib borilgan urushlarini, ajdodlarimizning Vatan himoyasida ko'rsatilgan qahramonliklari va jasoratlarini ob'ektiv tarzda bayon qiladi. Mazkur asarning O'rta Osiyon Rossiya tomonidan bosib olinish jarayoni qismi "Shark Yulduzi" majallasida (1990, №-8) chop etilgan.<sup>67</sup>

Abu Ubaydulloh Toshkandiy "Xulosat ul-ahvol" asarini Toshkent bosib olingandan keyin yozib tugatgan. Bu asarda muallif Toshkent aholisining rus qo'mondonlari bilan olib borilgan siyosatlari, O'rtada imzolangan sulh shartlari va ikki tomonlama munosabatlarning ba'zi masalallarini yoritadi.<sup>68</sup> Afsuski, mazkur manba ma'lumotlari qo'lyozma shaklida qolib ketmoqda. Toshkent va uning atrofi tarixi, ayniqsa, ruslar tomonidan bosib olinishi bizga ma'lum bo'lgan Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida ham yaxshi yoritilgan. Mazkur asarning ruslar bosqini davriga bag'ishlangan qismi internet saytlaridagi "Zaytsshpigelъ" sahifalarida o'rinni olgan. Endi mutaxassislar uning ma'lumotlaridan yanada kengroq foydalanishlari mumkin.<sup>69</sup> Mirzo Olim ibni Mirzo Rahim Toshkandiyning "Ansob us-salotin va tavorix al-xavoqin" asari "Qo'qon xonligining tarixi" nomi bilan chop etildi.<sup>70</sup> Ammo asarda izohlar berilmagan, matn esa to'liq nashr qilinmabdi.

Rossiya bosqinidan keyingi voqealar talqini Mullo Xolbek ibn mullo Muso Andijoniyning "Aliquli amirlashkar jangnomasi" asarida bayon qilingan. Asar muallifi ruslar bosqiniga qarshi xalq harakatlariga faol qatnashgani uchun 10 yil surgun qilingan bo'lib, mahkum etilgan joylarda o'zining esdaliklarini yozgan. Asar nazmda yozilgan bo'lib, yagona nusxada bizgacha yetib kelgan. Mazkur

<sup>67</sup> Бу асар ва унинг муаллифи хақида муфассал қар.: Вахидов Ш. Аваз Мұхаммад Аттар Хуканди и его сочинение "Тарихи жаҳоннамойи" (Исследование, перевод и примечания). Дисс. канд.ист.наук.-Тошкент, 1991,-165с.К265; Ўша муаллиф, Кўқон хонлигига тарихнависликнинг ривожи. XIX аср XX асрнинг бошлари.-Тошкент, 1998, 315 б. Шу муаллифнинг бир қатор асарлари ва маколалари мавзумимиз манбашунослигига бағишиланганини таъкидлашимиз лозим.

<sup>68</sup> Вохидов Ш. XIX аср Тошкент тарихчилари.-Тошкент,1996. 12-26 б; Шу муаллиф, Кўқон хонлигига тарихнависликнинг ривожи. XIX аср XX асрнинг бошлари.165-178..

<sup>69</sup> Яна қар., Вохидов Ш. XIX аср Тошкент тарихчилари.-Тошкент, 1996. 12-26 б; Шу муаллиф, Кўқон хонлигига тарихнависликнинг ривожи. XIX аср XX асрнинг бошлари. 219-234.

<sup>70</sup> Қар.: Мирзо Олим Тошкандий. Кўқон хонлиги тарихи.-Т.:Фан.2001.

asarning ham chop etiliishi, bizning fikrimizcha mavzu manbashunosligini boy etishi aniq.

Qo'qon tarixnavisligi maktabida Toyib nomi bilan mashhur bo'lgan Mullo Muhammad Yunusjon shig'ovul katta maqomga ega. U bir qancha tarixiy asarlarning muallifi bo'lib, xonlik davrida Aliquli amirlashkar (1830-1865 11-may)ga muovin, ruslar Toshkandni bosib olgandan so'ng Sharqiy Turkistonda Yorkand hokimi, 1877 yildan keyin Qo'qonga qaytib qozi lavozimlarida ishlagan.<sup>71</sup> Uning "Tuhfayi Toyib"<sup>72</sup> va "Tarixi Aliquli amirlashkar"<sup>73</sup> asari Qo'qon tarixnavislik maktabida alohida ahamiyatga egadir. Tilga olingan manbalarda ularning mualliflari Qo'qon va Rossiya o'rtalaridagi munosabatlarini Rossiya bosqini doirasida yoritilgani bilan ajralib turadi. Ularning ma'lumotlari davr tarixchilari va arxiv ma'lumotlari bilan birga voqealar tafsilotini ob'ektiv tarzda yoritilishi uchun yordam beradi.

<sup>71</sup> Унинг хаёти ва илмий мероси ҳақида муфассал қар.: Вохидов Ш. Кўқон хонлигига тарихнависликнинг ривожи. XIX аср XX асрнинг бошлари. 238-250б.

<sup>72</sup> Муҳаммад Юнус Ходжа б. Муҳаммад Амин Ходжа (Тойиб). Тухфайи Тойиб./ Подготовка к изданию и Предисловие: Б.М.Бабаджанов, Ш.Х.Вахидов, X.Каматцу-Тошкент-Токио, 2002.-46 с.

<sup>73</sup> Муҳаммад Юнусжон шиговул. Тарихи Аликули амирлашкар// Шарқ Юлдузи, 1994, №№-1-2; Яна қар.: Илхамов З.А. Аликули амирлашкар и его место в политической истории Кокандского ханства. Автореферат дис... канд. ист. наук.-Тошкент, 2004.